

**BOG`CHA BOLALARIDA INGLIZ TILIDA SO`ZLASHUV
AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA DUCH KELADIGAN
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

Ilmiy rahbar: Karimova U.O.

SamDCHTI o'qituvchisi

Xurshed Haydarov

SamDCHTI Ingliz tili I fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tilini turli xil metodlar yordamida o`rgatish va bu jarayonda o`qituvchilar oldida yuzaga keladigan ba`zi bir muammolarning yechimi, bolalarning o`yin faoliyatlari va ularning yoshiga nisbatdan psixologik o`zgarishlari va bolalar tempiramentining ahamiyati haqida aytib o`tilgan.

Kalit so`zlar: Metodika, ta`lim sistemasi, ta`lim metodi, ta`lim prinsipi, ta`lim vositasi, metodik usul, tempirament, diqqat, o`qitish samaradorligi.

Chet tili muallimligini kasb-u kor sifatida tanlaganlar zimmasiga ushbu tilni o`qitish nazariyasidan mukammal xabardor bo`lishdek vazifa yuklanadi. O`qitish ilmini metodika fani yoritadi, « metodika» so`zi yunonchadan olingan bo`lib, « Biron ishni maqsadga muvofiq bajarish usullarini majmuyi» ma`nosini bildiradi. Har bir fanda o`z tushunchalar yig`indisi mavjud. Chet tili o`qitish metodikasida qabul qilingan asosiy tushunchalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: ta`lim sistemasi, ta`lim metodi, ta`lim prinsipi, ta`lim vositasi, metodik usul.[1]

Bugungi kunda chet tilini o`rganish bir qiziqish sifatida emas, balki ehtiyoj bo`lib qoldi. Mamlakatimizda chet tilini o`qitish nafaqat maktab va universitetlarda balki maktabgacha ta`lim muassasalarida ham o`rgatib kelinmoqda. Inson xotirasi yosh o`tishi bilan pasayib boraveradi va tabiiki bu ta`lim olish sifatini pasaytiradi, shuning uchun ham chet tilini o`rganish uchun yosh bolalik davri juda ham qulay hisoblanadi. Bog`cha bolalarida chet tilini o`rgatish uchun o`ziga xos prinsiplar mavjud. Misol uchun Ingliz tilini olaylik bu tilni bog`cha bolalariga o`rgatish uchun har bir pedagog eng avvalo bolalarning tempiramentini bilishi lozim. Bolalarning tempiramentini bilib olgan o`qituvchi har qanday bola bilan qaysi metodda ish olib borishini biladi.

Maktabgacha yoshida Ingliz tilini o`qitishdan bolalar asta sekin kommunikativ kompetentsiya asoslarini rivojlantiradilar, bu ingliz tilini o`rganishning datlabki bosqichida quydagi holatlarni o`z ichiga oladi:

1. Fonetik nuqtai nazaridan to`g`ri takrorlash qobiliyati
 - Inglizcha so`z boyligini o`zlashtirish, birlashtirish va faollashtirish.

- Ma`lum miqdordagi sodda grammatik tuzilmalarni o`zlashtirish, izchil bayon tuzish.[2]

Bog`cha bolalariga Ingliz tilini o`rganish jarayonida o`qituvchilar ba`zi muammolarga duch keladlar. Masalan: Bog`cha yoshidagi bolalarning chet tilini o`rganishga qiziqтира olmaslik, ularning diqqatini darsga qarata olmaslik va so`zlarni yodlatishda bo`lgan ba`zi bir qiyinchiliklar pedagoglarning asosiy muammolari bo`lib qolmoqda.

Maktabgacha yoshidagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat kuchli bo`ladi, ya`ni sal narsaga diqqati buziladi Ingliz tilini o`rgatish uchun ko`pgina qiziqarli o`yinlardan foydalanish kerak. Dars davomida har xil o`yinlar o`ynatib turish fanni o`rganishga bo`lgan ishtiyoqni yanada oshiradi. Quyida sizga Ingliz tli darslari davomida o`qitish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiluvchi o`yinlarni taqdim etamiz.

Last Man Standing (Oxirgi qolgan odam) – Bu o`yin tezkor o`yin hisoblanadi, lekin bolalarga o`ylash chun vaqt beriladi. Imkonqadar bola o`sha berilgan vazifani harakat qilib topgunicha vaqt berish kerak, chunki bog`cha bolalarinig o`ylash qobiliyati sust bo`ladi, shuning uchun ularga vaqt berish kerak. Bu o`yin birgalikda o`rganishga undaydi, ya`ni boshqa bolalar so`zlaganlarida qolgan bolalar o`zlari so`z o`ylayotgan bo`ladi. O`yinni o`ynash uchun sizga koptokcha kerak bo`ladi va hamma bolalar doira shaklida bo`lib olishlari kerak. Boshqa bironta o`rgatgan mavzuingizni tanlab olib shu mavzuga doir so`z va terminlarni aytib berishlarini aytishingiz kerak. Agar ular aytilgan so`zni qayta aytsa yoki ko`p vaqt sarflasa, ular o`yindan chiqadi va o`yinni o`tirgan holatda kuzatadi. O`yin oxirida bitta bola qolguncha davom etadi.[3]

Oxirida barcha bolalarni rag`batlantirishda ularga shunchaki hammasi yaxshi qatnashganini aytish kerak, chunki bog`cha va kichik maktab yoshidagi bolalarni rag`batlantirish boshqa bolalarning psixikasiga salbiy ta`sir qilishi mumkn.

Bog`cha yoshidagi bolalar nutqining rivojlanishi ularning faoliyati, muloqoti bilan uzviy bog`liqdir. Bola jumalarning mazmuni va shaklidagi o`zgarish uning muloqot shakllari o`zgarishi bilan bo`g`liq bo`ladi. Ilk bolalik davriga xos situativ nutq ishchan muloqot shaklidan nosituativ bilishga yo`naltirilgan va nosituativ – shaxsiy muloqot shakliga o`tilishi bolalar nutqiga ma`lum bir talablarni qo`yadi . Bu talablar bola nutqinig yangi tomonlarini, turli kommunikaiv masalalarni hal qilishi uchun zarur bo`lgan xususiyatlarini tarkib toptiradi. Bog`cha yoshidagi bolalarning nutqi ijtimoiy aloqalarni o`rnatish funksiyasini bajara boshlaydi. Buning uchun esa bolada ichki nutq tarkib topishi, monologik xususiyat kasb etib borishi lozim bo`ladi. Bog`cha yoshida bola nutqining rivojlantirishdagi muhim xususiyat nutq tafakkur quroliga aylanishidan iborat. Bola so`z – lug`at boyligining o`sishida 2 muhim tomon – miqdor va sifat tomonlari mavjud.[4]

Bolalarning rivojlanish bosqichlari bir biridan farq qiladi. Psixologlarning fikricha bolani erta yoshdan gapirishga majbur qilish ko`p hollarda kutilgan natija olib kelmaydi. Bog`cha yoshidagi bolalarga xorijiy tillarni o`rgatish uchun, ularning qiziquvchanligini inobatga olish kerak. Ko`p hollarda ota-onalar farzandlarini psixologik va fiziologik tayyorgarligini bilmasdan unga turli fanlarni o`rgatishga harakat qilishadi. Lekin bola buni xohlamasligi ham mumkin. Bunday ko`ngilsiz holatlarni oldini olish uchun bolani aynan nimaga qiziqishini bilish lozim.

Har bir bolaning ichki dunyosida qiziquvchanlik birinchi o`rinda turadi. O`yin bolaning asosiy va sevimli mashg`uloti hisoblanadi. O`yin orqali bolada ta`limga bo`lgan qiziqishini oshirish mumkin. Masalan bolalarning Ingliz tilidagi nutqini shakllantirish uchun ularga she`r yodlatish va turli xil so`zlarni baland ovozda bir-birlariga aytirish kabi turli xil o`yinlarni o`tkazib turish maqsadga muvofiq bo`ladi. [5]

Bolalar harakatlar orqali tez o`rganishadi, agar Ingliz tilini o`rgatishda harakatlar orqali amalga oshirsak, bizga kutgan natijani beradi. Bolada Ingliz tili nutqini oshirish uchun, o`z ona tilida muloqotni kamaytirib urg`uni Ingliz tiliga berishimiz kerak. Bunda bizga ta`limiy faoliyat turlari yordam beradi. Bular :

- « Playing with blogs or legos» - blok va lego vositalari bilan o`ynash.
- «Dressing» - turli ertak qahramonlari kiyimlarini kiyish
- «Sing a song» - qo`shiq ko`ylash kabi faoliyat turlaridan foydalanish kerak. [5]

Xulosa

Maktabgacha yosh davridagi bolalarga Ingliz tilida so`zlashuv amaliyotini rivojlantirish uchun turli xil turdagi o`yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi, chunki bog`cha yoshidagi bolalarning psixikasida faqat o`yin faoliyati shakllangan bo`ladi va ixtiyorsiz diqqati kuchli bo`ladi. Shu sababdan agar siz har bir bolani til o`rganishida o`yin orqali qiziqitirsangiz bu keyinchalik o`z samarasini ko`rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamol Jalolov . Foreign Language Teaching Methodology (Chet til o`qitish metodikasi)
2. Mustafoyeva Safarbonu. « Maktabgacha yoshdagi bolalarga Ingliz tilini o`rgatish usullari»
3. www.hasanboy.uz
4. Z.T.Nishanova, G.K. Alimova, A.G.Turg`unboeva, M.X.Asranboeva. «Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi»
5. G.Majidova, S.Tojiboyevna «Maktabgacha yoshdagi bolalarda Ingliz tili nutqini oshirish»